



OILADA FARZAND XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Djuxonova Noxida Xayotjonovna

FDU o'qituvchisi

Guljahon Eshonqulova

FDU magistr

Annotasiya: *Ushbu maqolada oilada farzand xulq-atvorini shakllantirishda ota-onaning rolini psixologik ta'sirini o'rganilgan. Bolalarda ota-onalarga hurmat, ular uchun sarflangan moddiy va ma'naviy mehnatning qadriga etish, oilaviy munosabatlarga ongli qarash tuyg'ularini o'stirish muhim tarbiyaviy omillari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *nazoratchi, shkala "qabul qilish – rad etish", shkala "Kooperasiya", shkala "Simbioz", shkala "Avtoritor gipersosiolizasiyalash"*

ОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПОВЕДЕНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

Аннотация: *В данной статье рассматривается психологическое влияние роли родителей на формирование поведения ребенка в семье. Уважение к родителям, оценка проделанной для них материальной и духовной работы, формирование сознательного отношения к семейным отношениям являются важными воспитательными факторами у детей.*


Ключевые слова: *супервайзер, шкала «принятие-отторжение», шкала «Сотрудничество», шкала «Симбиоз», шкала «Авторитарная гиперсоциализация».*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF CHILDREN'S BEHAVIOR IN THE FAMILY

Annotation: *This article discusses the psychological impact of the role of parents on the formation of a child's behavior in the family. Respect for parents, assessment of the material and spiritual work done for them, the formation of a conscious attitude towards family relations are important educational factors in children.*

Key words: *supervisor, "acceptance-rejection" scale, "Cooperation" scale, "Symbiosis" scale, "Authoritarian hypersocialization" scale.*

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatni shakllantirishda, yuksaltirishda hech shubhasiz, o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolani, harakterini, xulq-atvorini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va





qarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muxitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglashhar qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarining negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi¹.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan bir qator qaror va yo'l-yo'riqlarda xalqimizning ijtimoiy-madaniy yuksalishini ta'minlovchi fikrlar, tavsiyalar berildiki, ular jamiyatning asosi o'zbek oilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamolotida muxim rol o'ynamoqda. Chunki, onalarimiz har tomonlama yuksalish demakdir. Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hamdir. Ikkinchi tomondan, jamiyatning oila va oilaviy tarbiyasiga bo'lgan talab ham kun sayin ortib bormoqda. Zamon ota-onalarning bolalar tarbiyasi yuzasidan ma'suliyatni kuchaytirish ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Ota - ona munosabatining sinov so'rovnomasi A. Y. Vargon. va V.V Stolin tarafidan ishlab chiqilib, psixatamkis asbobini ifodalaydi. Bu asbob ayrim ota - onalarning bolalarga munosabatlarini yolg'a quyish uchun psixologik yordamga muxtoj bolganlarni aniqlaydi. Ota - onaning bolaga nisbatan bolgan munosabati tuygularining rang - barang tizimi sifatida tushuniladi, shu jumladan xulq - atvori, bolaning xarakteri va shaxsiyatini tushunish bilan asoslanadi.

Ota - ona munosabatining sinov so'rovnomasini tuzishda 7 - yoshdan 11 yoshgacha bolgan ruxiy sog'lom bolalar ishtirok etganlar. Natijada 2 ta gurux xosil boldi.

1. Nazoratchi - bu guruxga kiruvchi ota - onalar yordamga muxtoj emas va bolalarga nisbatan bolgan munosabatlar subyektiv yaxshi.

2. Tajribali - guruxga kiruvchi ota - onalarga mutaxassislar tomonidan yordam kerak bolgan.

Hamma ota - onalar Fargona shaxridan bolib, yarmidan ko'pi oliy ma'lumotlilardir.

Savolnoma "oila" rasmi bo'yicha 5 shkoladan tarkib topgan. O'tkazilgan tadqiqotda jami sinaluvchilar soni 32 ta. Qizlar soni 16 ta, o'g'il bolalar soni 16 ta, 13 tasi to'liq oila.

1. Shkala « qabul qilish - rad etish »

Shkola boyicha sinaluvchilarning 8 tasi ya'ni 50% tashkil etadi. Bunday ota - onaga farzand qanday bolsa shunday yoqadi. Ota - ona va farzand istoklari bir xil. Ota - ona bolani shaxsiyatini xurmat qiladi va yoqtiradi. Ota - ona ko'proq vaqtini farzandi

¹ И.А.Каримов "Юксак маънавият енгилмас куч" Т.: Маънавият 2008 й. 55-58 б.





bilan o'tkazadi. Farzandining qiziqishlari va rejaları bilan o'rtoqlashadi. Ushbu ota – onalarning farzandlari aks ettirgan rasmlarida ham oilaviy munosabatlarning yaxshi yolg'a quyilganligini ko'rish mumkin. Oila psixologik muxit xukm surayotganligi rasmlarda o'z ifodasini topgan. Ayniqsa jinsiy tafovutlari o'rganilganda esa quydagilar aniqlandi.

1. Jadval

No	Sinaluvchilar soni	Jinsi	% foiz hisobiga
1	4	Ayol	25 %
2	4	Erkak	25 %

Sinaluvchilarning 4 tasi ya'ni 25% ni toliq oilada tarbiyalanayotgan qizlar. Ularning chizgan rasmlarida turli xil ko'rinishlar oila a'zolari o'rtasida ham hissiy emasional peosli ko'rsatilgan. Shu bilan birga axramatik ranglarda keng foydalanilgan. Chizilgan rasmlarda imkon qadar elementlar demollarga e'tibor qaratilga. Ota – onasi va o'zining kiyimlarida ochiq ranglarda ham ko'proq ishlatilgan. Rasmlarda tasvirlanganlarning yuzlarida ham ko'tarinki kayfiyat aks ettirilgan.

Sinaluvchilarning 4tasi ya'ni 25% foizi to'liq oilada tarbiyalanayotgan o'g'il bolalardir. Ular aks ettirgan rasmlarda xramatik ranglarda foydalanilgan. Lekin shunday bo'lsada ijobiy emazional holatlar tasvirlangan. Rasmlarda har bir oila a'zosining o'z o'rniga ega ekanligi ko'rsatilgan.

2.Shkala "Kooperasiya"

Sinoluvchilarning 12 tasi ya'ni 75 % ni tashkil etadi. Bunda ota – onalar bolalarning reja va ishlariga qiziqish, bardamlik bildiradi. Ota – ona bolasining intelektual va ijodiy hususiyatlarini yuqori baxolaydi va faxrlanadi. U bolasining mustaqilligi va maqsadini rag'batlantiradi va tengdam bo'lishni xohlaydi.

Respondentlarning 6 tasi qizlardir. Ularning chizgan rasmlarida oila har kim o'zining sevimli mashg'uloti bilan shugullanayotganligi o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga kiyinish uslublarida ham qaysidir ma'noda o'ziga xoslik, har bir oila a'zosining mavqei tasvirlangan.

2.Jadval

No	Sinaluvchi soni	Jinsi	Foiz xisobida
1	6	Ayol	37,5 %
2	6	Erak	37,5 %

Respondentlarning 6 tasi ya'ni 37,5 % foizi o'g'il bolalar bo'lishiga qaramay o'zlarining oilaviy rasmlarida quvnoqlik xatto raqs tushayotganliklarini aks ettirishganlar. Bola oilada o'zini mustaqil ekanligini chizgan rasmlarida to'la aks ettirilgan.

3.Shkala "Simbioz"





Sinaluvchilarning 6 tasi ya'ni 37.5% ni tashkil etadi. Bunda shunday ifodalanadiki, ota – ona va farzand bitta birlik, bolani hohish istaklarini qondirishga intiladi, baxtsizlik va yomonliklardan himoya etilishini xoxlaydi. Ota – onasi bolasi uchun doim xavotirda bo'ladi, uning nazarida farzandi kichkina va kuchsizdir, uning xavotiri bola yiroqlashgan sari yanada oshadi. Ota – ona farzandining mustaqilligini egallaydi. Respondentlarning 3 x 6,25 tasi ya'ni 18,7 % qizlar tashkil etadi. Bola o'z imkoniyatlarini ko'rsatib berishga moyillikligini yuqoridagi chizgan rasmlarida tasvirlangan, oila a'zolarida yiroqlashganda bola o'zining xohlagan mashg'uloti bilan shug'ullanish uchun imkoniyat topganini sezganday mustaqil holatlar ko'rsatilgan. Respondentlarning 3 tasi ya'ni 18,7 % o'g'il bolalar. Ularning chizgan rasmlarida mustaqillikka intilish kuchliligi tasvir langan o'zini to'siqlar ostida tasvirlangan.

3. Jadval

No	Sinaluvchi soni	Jinsi	Foiz xisobida
1	3	Ayol	18,75%
2	3	Erak	18,75%

4.Shkala “Avtoritor gipersosiolizasiyalash”

Sinaluvchilar 2 tasi ya'ni 12,5 % tashkil etadi. Bunda shunday ifodalanadiki : bolaning hulq atvorini nazoratini yo'naltirish shaklini ifodalaydi. Ota – ona farzanddan tartib intizom va bo'ysunishni talab qiladilar. Ota – ona har doim farzandini nazorat qilib turadilar. Ota – ona o'z hukmini bolaga o'tkazadi va u bilan hisoblashmaydilar. Farzandning bo'ysunmasligini qattiq jazolaydilar. Ota – onaga bolaning jamoa yutuqlar , shaxsiy xususiyatlar, fikr, tuygularini nazoratlaydi.

Respondentlarning 1 tasi ya'ni 6,25 % qizlar tashkil etadi. Ularning chizgan rasmlarida qizaloq o'zini kichkina qilib tasvirlagan. Shu bilan birga qo'rquv alomati, yelkalari qisiq xolatda chizilgan. Yuzidagi emasional holatlar ham qo'rquv ostida aks ettirilgan. Rasmda ifodalangan ko'zlar katta – katta, boshlari egik, qo'llari yashiringan holatda tasvirlangan xuddi atrofdagilardan yordam kutayotganday.

Raspendentlarning 1 tasi ya'ni 6,25 % o'g'il bola tashkil etadi. Chizgan rasmlarida oyoqlari qaysarlik xolatidaligi ko'rsatilgan qo'llari pastda, sochlarining ko'rinishi tikka agressivlik xolati ifodalangan.

4. Jadval

No	Sinaluvchi soni	Jinsi	Foiz xisobida
1	1	Ayol	6,25 %
2	1	Erak	6,25 %

5. Shkala : “Jajji omadsiz”

Sinaluvchilar 4 tasi ya'ni 25 % foizi tashkil etadi. Bunda ota – onaning bolani tushunish qabul qilish xususiyatlarining ifodalaydi. Ota – onalar farzandiga





infantilizasiyalashga intiladilar, ya’ni shaxsiy va siasial yaroqsizlikni. Ota – ona bolani yoshiga nisbatan qabul qilmay, yosh bola deb o’ylaydi.

Bolani qiziqishlari, fikr va tuyg’ularini ota – ona jiddiy qabul qilmaydi. Bola moslashmagan, omadsiz bo’lib ko’rinadi. Ota – ona bolasiga ishonmaydi, omadsizlik va moslashmaslik uchun tana qiladi. Shu sababdan ota – ona bolaning qiyinchiliklaridan asraydi.

Sinaluvchilarning 2 tasi ya’ni 12,5 % qizlar tashkil etadi. Ularning chizgan rasmlarida ya’ni ularning xaddan tashqari ijobiy munosabatlari aks ettirilgan. Oila a’zolarining unga nisbatan befarq emasliklari ko’rsatilgan.

Sinaluvchilarning 2 tasi ya’ni 12.5 % o’g’il bollar tashkil etadi. O’g’il bolalar o’z chizgan rasmlarida o’z qobig’iga o’ralib qolgan holat ifodalangan. Kattalikka intilish rasmlarda bo’ylarini akasining bo’yi bilan tenglashtirib ko’rinadi.

5.Jadval

No	Sinaluvchi soni	Jinsi	Foiz xisobida
1	2	Ayol	12,5 %
2	2	Erak	12,5 %

Tadqiqot tavsil xulosalariga asoslanib, oilada yangi avlodni tarbiyalash va ularning barkamolligini davr talabi darajasida shakllantirish yuzasidan qator tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Bu albatta, tadqiqotning ma’naviy, mafkuraviy ahamiyatini belgilab mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy dasturni hayotga tatbiq qilinishi va rivojlanishiga munosib ulush bo’ladi.

Yangi davr, yangi sharoit ruhidagi inson psixologiyasining barkamolligini ta’minlash, amaliy jihatdan jamiyatimiz fuqarolarini dunyoqarashini zamon talabi darajasiga mos ravishda shakllantirish, yoshlar tarbiyasini yanada samaraliroq olib borish, oliy ta’lim muassasalarining ta’lim-tarbiya ishlarida yangidan-yangi maqbul imkoniyatlarini qidirib topish ishini jonlantiradi.

Izlanish jarayonida to’plangan ma’lumotlar oilada farzand xulq-atvorini shakllantirish borasida ijtimoiy muxitning va oiladagi tarbiyalanuvchilarning ro’li beqiyosligini aniqladik. Zero ushbu bitiruv malakaviy ish orqali yoshlarda o’ziga, o’zgaga, zamon talabidan kelib chiqayotgan yangi progressiv hodisalarga munosabat bildira olish va Vataniga, millatiga, mustaqil O’zbekiston fuqarosiga munosib bo’lish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Djuhonova, N. (2020). PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE AS A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEM. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 68-71)





2. Джухонова, Н. Х., & Мамажонова, Ш. (2021). МАҲАЛЛА-ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(7).

3. Джухонова, Н. Х., & Иброхимов, Д. (2021). ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК-СТУДЕНТОК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. Scientific progress, 2(4), 829-835.

4. Abdukadirova L. Y., Mirzajonova E. T. The importance of reading competencies in the context of the “industry 4.0” industrial revolution //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 205-210.

5. Исакова М. Т. и др. ФАКТОРЫ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ //Психологическое благополучие современного человека. – 2019. – С. 627-630.

6. Солиев Ф. С., Абдуллаева А. Р., Джухонова Н. Х. ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЭТНОЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ //Психологическое благополучие современного человека. – 2019. – С. 334-339.

